

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.04.06 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

**TOBANAZAROV AZAMAT PIRNAZAROVICH**

**UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA QORAQALPOQ PROZASINI  
O‘QITISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Tobanazarov Azamat Pirnazarovich**

Umumta'lim maktablarida qoraqalpoq prozasini o'qitish metodikasi..... 3

**Тобаназаров Азамат Пирназарович**

Методика преподавания каракалпакской прозы в общеобразовательных  
школах..... 25

**Tobanazarov Azamat Pirnazarovich**

Methods of teaching Karakalpak proze in secondary schools..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.04.06 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

**TOBANAZAROV AZAMAT PIRNAZAROVICH**

**UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA QORAQALPOQ PROZASINI  
O‘QITISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3648 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Yusupov Konisbay Abilovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Bekimbetova Gulbahar Risbayevna</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent <b>Allamuratova Zuxra Maxsetbaevna</b> filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Urganch davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi DS.03/2025.27.12.Fil.04.06 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil "15" may soat 19.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25); faks: (99861) 223-59-25, E-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpog' davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (519 raqam bilan ruyxatga olingan.) Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Tel: (99861)223-59-25, faks: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "1" may kuni tarqatildi.  
(2026-yil "1" may daqi "2" raqamli reestr bayonnomasi).



**K.K.Orazimbetov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

**J.O.Tanirbergenov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash iboy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Z.U.Bekbergenova**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fil.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda adabiyotni o'qitish samaradorligini oshirish maqsatida ta'lim jarayoniga ilg'or shakl, usul va vositalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Badiiy asarlarning tur va janrlarga bo'linishi, ularning etnomadaniy, g'oyaviy-estetik va janr-shakliy xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning yangi metodikasini yaratish, kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlash hamda o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. O'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, barkamol shaxs etib tarbiyalash, intellektual salohiyat va badiiy-estetik tafakkurni kengaytirishda adabiy ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, adabiy ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar asosida olib boriladigan tadqiqotlar soha taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida adabiy ta'limda turli tur va janrdagi asarlarni o'rganishga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Bunda o'quvchilarning asar tahlili orqali muallif konsepsiyasi, qahramon kechinmalarini anglashi, mavzu va g'oyalarni keng kontekstda ko'rib chiqishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yangi metodikalar ishlab chiqilib, o'quvchilarning ma'naviy-intellektual yetukligini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, mustaqil izlanishi va tanqidiy fikrlashiga, xususan, konstruktiv va muammoli ta'limni yo'lga qo'yish masalasiga urg'u berilgan. Shu sababli, adabiy ta'lim samaradorligini jahon pedagogikasining ilg'or metodlari asosida tadqiq etish va natijalarni ilmiy jamoatchilikka yetkazish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizning umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy va jahon adabiyotini chuqur o'rganish, kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish hamda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar adabiy ta'lim samaradorligini oshirmoqda. Badiiy asarlarning o'ziga xos jihatlari va badiiy jozibasini o'rgatish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, ularning asar g'oyaviy-estetik mazmunini chuqur idrok etishiga, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini egallashiga, ma'naviy-axloqiy va estetik salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari"da: "Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish va o'tkazish" kabi muhim vazifalar belgilangan<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 14-августдаги "Ёшларни маънавий-ахлоқий ва jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga kўtariш chora-tadbirlari tўғрисида"ги ПҚ-3907-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda “2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz maktablarda adabiyotni o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari, adabiy ta‘limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, adabiyot darsining samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va savol-topshiriqlarning o‘rni, adabiyot darslarida o‘zlashtiriladigan o‘quv materiallarini murakkablashtirish tizimi, adabiyot fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish texnologiyasi va adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi masalalari haqida A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, M.Mirqosimova, R.Niyozmetova, S.Matchanov, B.To‘xliyev, K.Husanboyeva, R.Keldiyorov, X.Suyunov, F.Egamberdiyeva, V.Qodirov, G.Fayzullayeva, M.To‘ychiyeva, A.Boltayeva, M.Fozilovalar o‘z tadqiqotlarida bayon etadilar.<sup>2</sup> Shu bilan birga umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishning ilmiy-metodik masalalari Z.Ayjanova, A.Paxratdinov, K.A.Yusupov, K.Palimbetov, J.Sag‘idullayeva va J.Qaniyazovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.<sup>3</sup>

Jahon pedagogikasi tarixida ta‘lim muassasalarida adabiyotni o‘qitish masalalari bo‘yicha Z.Ya.Rez, N.I.Kudriyashev, A.V.Kan-Kalik, V.I.Xazan, V.G.Maransman,

<sup>2</sup> Zunnunov A. Ўзбек мактабларида адабиёт ўқитиш методикаси тарихидан очерклар. – Т.: Ўқитувчи, 1980. 1994; Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. Мирқосимова М. Адабий таҳлил методикаси. – Т.: РТМ, 1995; Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: Пед. фан. д-ри. ... дис. – Т., 1998; Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006; Хусанбойева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Эгамбердиева Ф. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси: Пед. фан. ном. дис. автореф. – Т., 2005; Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш муаммолари ва ечимлар. – Т.: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009;

<sup>3</sup> Айжанова З. Эдебиат сабағинда айырым прозалық шығармаларды үйрениў. – Нөкис: Билим, 1991; Уси автог. Эдебиат сабағинда И.Юсуповтың шығармаларын үйрениў. – Нөкис: Билим, 1993. Пахратдинов Ә.Қарақалпақ эдебиатын оқытыў методикасы. – Нөкис: Билим, 2004. Юсупов Қ. Академиялық лицейлерде қарақалпақ эдебиатын оқытыў методикасы (шолкемлестириў формалары ҳәм кластан тыс жумыслар): П.и.

M.G.Kachurin, O.Bogdanova kabi rus olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.<sup>4</sup> Shuningdek, ushbu ilmiy-pedagogik masalalarga oid MDH davlatlarining metodist olimlaridan A.Ko‘shimbaev, T.Aqsholaqov, B.Alimov, K.Imanaliev, O.Yazimov, A.Miradurdiev, A.Ahmedov, A.Babaev, Z.Usubalievlar tomonidan turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitishning metodik masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy asarlar yaratilgan.<sup>5</sup> Bundan tashqari ushbu yonalishda xorijlik olimlardan Boardman-Moen Christine, McCarthy Tara, Ward Lott Sandra va boshqalarning bir qator ilmiy-metodik tadqiqot ishlari mavjud.<sup>6</sup>

Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi adabiyot darslarida qoraqalpoq nasriy asarlarini o‘qitish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida amalga oshirilishi 2020–2023-yillarga rejalashtirilgan F3-2016-0908165532-son “Qoraqalpoq tilining yangi alifbosi va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihaning ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta’lim maktablarida 5–7-sinflarida qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni samarali o‘qitishning ilmiy-metodologik, estetik va amaliy asoslarini takomillashtirish va rivojlantirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

5–7-sinflarda nasriy asarlarni o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari, adabiy ta’lim uzviyligi va uzliksizligi tamoyillariga ustuvorlik berish asosida adabiyot o‘qitish metodikasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda 5–7-sinflarda nasriy asarlarni didaktik tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘quvchilarning badiiy fikrlashi va estetik didini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslash;

5–7-sinflarda nasriy asarlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari: konstruktiv va muammoli o‘qitish turlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratib berish va takomillashtirish;

adabiyot darslarida nasriy asarlarni o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llashning amaliy-metodik mazmuni va didaktik xususiyatlarini ochib berish;

---

<sup>4</sup> Рез З.Я. Методика преподавания литературы. – М.: Просвещение, 1985; Кудряшев Н. И. Теоретические основы методики литературы: Дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1970; Кан-Калик А.В, Хазан В.И. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – М.: Просвещение, 1988; Маранцман В. Г., Чирковская Т. В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – М.: Просвещение, 1977; Качурин М.Г. Организация исследовательской деятельности учащихся на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1989; Богданова О,и.др. В. Методика преподавания литературы. – М.: Academia, 2004.

<sup>5</sup> Көшімбаев А.Казак әдебиетін оқыту методикасы. – Алматы: Мектеп, 1969; Ақшолоқов Т.Көркем шығарманың эстетикалық табиғатын таныту. – Алматы: Мектеп, 1975; Алымов Б. Кыргыз совет адабиятын окутуунун методикасы. – Фрунзе: Мектеп, 1981. – 219 б. 1-китеп; Иманалиев К. Кыргыз адабиятын окутуу методикасынын орчундуу маселелери. – Фрунзе: Мектеп, 1984. – 176 б.; Язымов О, Мырадурдыев А. Адебияты окатмак методикасы. – Ашгабат: Магариф, 1963; Аһмедов А. Азербайжан әдебијатиниң тедриси тарихинден. – Баки: Маариф, 1971; Бабаев. А. IX синифда әдебејат дәрсләри. – Баки: Маариф, 1976; Усубалиев З. Т.Сатылгановдун өмүрү жана чыгармачылыгын орто мектептерде окутуу. – Фрунзе: Мектеп, 1971;

<sup>6</sup> Boardman-Moen Christine. Better Than Book Reports: More Than 40 Creative Responses to Literature // Teaching Resources, - 128 p.; McCarthy Tara. Teaching Literary Elements // Scholastic Teaching Resources, 1999. – 96 p.; Ward Lott Sandra/Global Perspectives on Teaching Literature: Shared Vision and Distinctive Visions // National Council of Teachers of English, 1111 W kenyon Rd., Urbana, 1993. – 412 p.

adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda meta-kognitiv qarashlar asosida tizimlashtirish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash va 5–7-sinflarda qoraqalpoq nasrini o'qitishda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslanib, matematik va statistik usullar yordamida xulosalar shakllantirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 5–7-sinflarning qoraqalpoq adabiyoti o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Nukus shahridagi 24-sonli, Xo'jayli tumanidagi 15-sonli, 30-sonli, Sho'manay tumani 1-sonli umumta'lim maktablardan jami 272 nafar o'quvchi jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–7-sinflarida qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o'qitishning mazmuni va shakllari, didaktik vositalari olib qaraladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda mavzuga doir nazariy-metodik adabiyotlarni o'rganish, dastur va darsliklarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so'rovnomalar, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktablarda 5–7-sinflarda nasriy asarlarni o'qitish tizimi qoraqalpoq adabiyoti materiallari asosida takomillashtirilib, unda obrazlilik va badiiylik kategoriyalarining mantiqiy-tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni assotsiativ kontekstlar hamda muammoli vaziyatlar vositasida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

5–7-sinflarda nasriy asarlarni konstruktiv va muammoli o'qitish texnologiyalari integratsiyasiga tayangan o'qitish mexanizmi ishlab chiqilgan hamda o'quvchining badiiy matn mazmunini shaxsiy tajribasi asosida "qayta qurish" (konstruksiyalash) ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik shartlari aniqlashtirilgan.

5–7-sinf o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar tizimi (matn osti ma'nolarini ochish, qahramonlar xarakterini qiyosiy tahlil qilish) o'quvchilarning badiiy-estetik idrok etish darajasiga muvofiq ravishda metodik jihatdan takomillashtirilgan.

5–7-sinflarda qoraqalpoq nasriy asarlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari asarning badiiy va pragmatik funksiyalarini ochib berishga yo'naltirilgan hamda metakognitiv yondashuv elementlarini qo'llash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

maktablarning 5–7-sinflarida adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitish metodikasining pedagogik imkoniyatlari va samarali tajribalar aniqlashtirilgan;

umumta'lim maktablari 5–7-sinflarida adabiyot fani dasturida qoraqalpoq nasriy asarlar namunalarini tanlash va unga qo'yiladigan metodik talablar takomillashtirilgan;

5–7-sinflarda nasriy asarlarni o'qitish metodikasi yaratilgan va nazariy-metodik jihatdan tahlil etilgan;

5–7-sinflarda nasriy asarlarni o'qitish metodikasining eng so'nggi yutuqlari asosida asarlarni tahlil qilish usullari, adabiy ta'lim jarayonida konstruktivizmni rivojlantirishning samarali pedagogik shartlari aniqlanib, tajriba orqali isbotlanilgan. Adabiyot darslari muammoli o'qitish asnosida yo'lga qo'yilgan, adabiyot fani

o'qituvchilarining metodik mahorati oshirilgan, nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida natijalarning sifati aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar olingan xulosalarning tegishli ta'lim muassasalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki, mazkur izlanishlar orqali umumta'lim maktablarining 5–7-sinflarida qoraqalpoq nasriy asarlarini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilindi va metodik jihatdan takomillashtirildi. Xususan, nasriy materiallarni chuqur, har tomonlama o'rganish va tahlil qilishga yo'naltirilgan didaktik yondashuvlar asoslab berildi hamda ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda taqdim etishning samarali usullari ishlab chiqildi. Shuningdek, o'qitish jarayonida tizimli yondashuv asosida pedagogik texnologiyalar majmuini qo'llash imkoniyatlari aniqlab berildi, bu esa dars jarayonining metodik dizaynini optimallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda fikrlash, mustaqil tahlil qilish va ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik mexanizm ishlab chiqildi. Ushbu mexanizm qoraqalpoq adabiyoti ta'limining zamonaviy konsepsiyasini ilmiy asoslashga va amaliyotga tatbiq etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** shundaki, ular pedagogika, pedagogik texnologiyalar, shuningdek, qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi fanlarining mazmunini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar tizimini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida o'qitishning samarali turlari va shakllari, ta'lim jarayonini boshqarish hamda baholashga tizimli yondashuv asosida pedagogik mexanizm takomillashtirildi. Ushbu ilmiy asoslangan yondashuv, ayniqsa, umumta'lim maktablarining 5–7-sinflarida qoraqalpoq prozasini o'qitishda zamonaviy metodik yechimlarni joriy etishga imkon yaratadi. Shuningdek, tadqiqot materiallari o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarida samarali foydalanish uchun asos bo'la oladi. Bundan tashqari, ularni ushbu soha bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda, shuningdek, metodik qo'llanma va amaliy tavsiyalar sifatida keng qo'llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumta'lim maktablarida 5–7-sinflarida qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o'qitish bo'yicha olib borilgan natijalar asosida:

maktablarda 5–7-sinflarda nasriy asarlarni o'qitish tizimi qoraqalpoq adabiyoti materiallari asosida takomillashtirilib, unda obrazlilik va badiiylik kategoriyalarining mantiqiy-tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni assotsiativ kontekstlar hamda muammoli vaziyatlar vositasida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanishiga doir amaliy taklif va tavsiyalar 2021–2024-yillarda Nukus, Xo'jayli va Sho'manay tumanlaridagi bir qator maktablarda o'quv jarayoniga joriy etilib, eksperimental sinovdan o'tkazilgan. (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2024-yil, 8-iyuldagi №01/11-6-416-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida qoraqalpoq adabiyoti darslarining samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini,

ma'naviy yetukligini rivojlantirishga erishilgan.

5–7-sinflarda nasriy asarlarni konstruktiv va muammoli o'qitish texnologiyalari integratsiyasiga tayangan o'qitish mexanizmi ishlab chiqilgan holda o'quvchining badiiy matn mazmunini shaxsiy tajribasi asosida “qayta qurish” (konstruksiyalash) ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik shartlariga doir tavsiyalar Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida amalga oshirilishi 2020–2023-yillarga rejalashtirilgan F3-2016-0908165532-son “Qoraqalpoq tilining yangi alifbosi va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihaning mazmunida o'z aksini topgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining 2024-yil, 18-yanvardagi 17-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktablarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi zamonaviy talablar va yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirilgan;

5–7-sinf o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar tizimi (matn osti ma'nolarini ochish, qahramonlar xarakterini qiyosiy tahlil qilish) o'quvchilarning badiiy-estetik idrok etish darajasiga muvofiq ravishda metodik jihatdan takomillashtirilga tegishli tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazining o'quv rejasidagi qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi fani mazmun jihatdan boyitilib, pedagoqlarni pedagogik mahorat markazining modulli malaka oshirish kurslarining samaradorligini oshirishda va kurs tinglovchilarini “Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb muammolari” nomli modulini o'qitishda ilmiy-metodologik manba sifatida keng foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazining 2022-yil 9-noyabrdagi №01-01-243-son ma'lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazining modulli malaka oshirish kurslarining samaradorligi va filolog o'qituvchilarning kasbiy mahorati oshirishga xizmat qilgan;

5-7-sinflarda qoraqalpoq nasriy asarlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari asarning badiiy va pragmatik funksiyalarini ochib berishga yo'naltirilgan hamda metakognitiv yondashuv elementlarini qo'llash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar maktablarda qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarni o'qitish jarayonga konstruktiv o'qitish va muammoli ta'limni yo'lga qo'yish nazariyasi amaliyotda tajribadan o'tkazilganligi qayd etilib, adabiyot darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2022-yil 10-noyabrdagi №01-01/3-3840-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktablarda o'quvchilarining nutqiy, badiiy tahlil kompetensiyalari va ma'naviy fazilatlari rivojlantirish imkoniyati oshirilgan. Shu bilan birga maktablarda qoraqalpoq nasriy asarlarini o'qitish metodikasining nazariy, estetik va metodik asoslarini tizimlashtirishgan va pedagogik amaliyotda foydalanishni takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 3ta uslubiy qo‘llanmasi nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 158 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlandi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumta‘lim maktablarining 5–7-sinflarida nasriy asarlarni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi nazariy bobning **“Umumta‘lim maktablarining 5–7-sinflarida qoraqalpoq adabiyoti dasturida nasriy asarlarning berilish tamoyillari”** nomli faslida adabiyot o‘qitish metodikasiga doir tadqiqotlar keltirilgan va izohlangan. Shuningdek, maktablarda qoraqalpoq adabiyoti darslarida nasriy asarlarini o‘qitishning hozirgi ahvoli o‘rganildi va tahlil qilindi. Amaliyotdagi ikkita adabiyot fani bo‘yicha ikkita fan dasturi o‘zaro taqqoslanadi, yutuq va kamchiliklari, ushbu fan bo‘yicha yaratilgan DTS haqida, qoraqalpoq adabiyoti darsliklariga, umuman, ta‘lim jarayonining didaktik ta‘minoti to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Adabiyot o‘quv fani sifatida boshqa fanlardan tubdan farqlanadiki, u ta‘lim oluvchilarning qalbi, ichki tuyg‘ulari, xayolot va hissiyot olami, ko‘ngil kechinmalari, umuman, ularning ruhiyatiga ta‘sir qiladigan va shakllantiradigan fan. Metodist olim K.Yusupov ta‘kidlaganidek, “O‘quvchilarning tafakkurini o‘stirishda, ularning yozma va og‘zaki so‘z boyligini, savodxonligini rivojlantirishda adabiyot fanining vazifalari va xizmati katta.”<sup>7</sup> Shu boisdan ham “Qoraqalpoq adabiyoti o‘qituvchisi qanchalik darajada sinfda adabiy materiallar bo‘yicha darsni o‘tkazish jarayonida har bir janrning spetsifik xususiyatlarini o‘quvchilarga tanishtirib o‘tsa, ularga qo‘llanilishi kerak bo‘lgan usul va metodlarni to‘g‘ri qo‘llasa, shunchalik darajada o‘quvchilarning adabiy asarlarni yaxshi o‘rganadi.”<sup>8</sup>

Ilmiy ishlarda bayon etilganidek, adabiy ta‘lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlovchi qoraqalpoq adabiyoti fanini o‘qitish mobaynida fan o‘qituvchisining faoliyatida sinfdagi har bir o‘quvchining adabiy bilim saviyasini aniqlash va yangi bilimlarni o‘zlashtirishdagi uzilishlarni bartaraf etishda yordam berish, adabiy ta‘lim mazmunida DTS, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi bo‘yicha uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilish, o‘quvchilarga qoraqalpoq adabiyoti fanidan o‘tiladigan mavzu va unga oid materiallarning ketma-ketligini, mos ravishda boshqa fanlardagi amaliy ahamiyatini tushuntirish, dars jarayonida mavzular uzviyligini tushunarli hamda hayotiy misollarga bog‘lagan holda bayon etish, yangi mavzuga oid materiallarni

<sup>7</sup> Yusupov K. Qoraqalpoq ádebiyatini oqituv metodikasi. – Tashkent: Sano standart, 2018. – B.187.

<sup>8</sup> Paxradinov Á. Qoraqalpoq ádebiyatini oqituv metodikasi. – Nókis, 2004. – B.165.

oddiydan murakkabga qarab izchil o'rganish usullarini tushuntirish, uy vazifasi, sinf, sinfdan tashqari ishlarning uzviylikini ta'minlash, boblar bo'yicha adabiy bilimlarning tizimli, bir butun, yaxlit shakllanganligini aniqlash uchun o'quvchilardan bobning adabiy tushunchalar shajarasini shakllantirish va unga doir topshiriqlar tizimini tuzishga o'rgatishni amalga oshirsa, o'quvchilarning adabiy bilim, ko'nikma va malakalar uzviyligi ta'minlanadi, bu esa yangi o'quv materialining tushunchalarini tasavvur etish, anglash va mavjud bilimlar bilan uzviy bog'lay olish hamda tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktablarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitishning mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi va samaradorligini oshirishda, mazkur o'quv fani bo'yicha tayyorlangan dasturning saviyasi, shu jumladan, dasturda berilgan nasriy asarlarning o'rganish yo'nalishlari ham o'rganish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ta'kidlanganidek, adabiyot o'quv fani sifatida "o'quvchilarda emotsional, ijodkorlik, ruhiy-ma'naviy sifatlarni boyitib, dunyoqarashini shakllantiradi. Adabiyot darslaridagi o'quv materiallarini o'rganish o'quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, ularning ma'naviy-estetik didini ham tarbiyalaydi"<sup>9</sup>.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun tuzilgan "Qoraqalpoq adabiyoti" (2021-yil) o'quv dasturida pedagogik va metodik nuqtai nazardan bir qator diqqatga loyiq jihatlari bor. Chunonchi, dasturda adabiyot mashg'ulotlaridagi asosiy maqsad sifatida milliy va dunyo adabiyotining ajoyib namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, odob-ikromlilikka tarbiyalash, badiiy-estetik qarashlarini shakllantirish hamda ularda erkin fikrlash, obrazli tafakkurga doir bilim, ko'nikma, tajriba va kompetensiyalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish, o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish mobaynida olam va inson tabiati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, kitob o'qish madaniyatini shakllantirish natijasida o'quvchilar ma'naviyatini, dunyoqarashini takomillashtirgan holda mustahkamlab borish to'g'risida atroflicha so'z yuritilgan hamda fanni o'qitish maqsadiga doir muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shu bilan birga qoraqalpoq adabiyoti fani mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilarda tayanch va fanga tegishli kompetensiyalarni shakllantirish lozimligi haqida ta'kidlab o'tiladi. Bundan tashqari dasturda qoraqalpoq adabiyoti bo'yicha davlat ta'lim standartlarining mazmuni va miqdori berilgan.

Maktablarda hozirgi amaldagi "Qoraqalpoq adabiyoti" o'quv dasturiga mos ravishda va "Adabiyot" darsliklarining mazmunida bir qator yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar va nasriy asarlari kiritilgan<sup>10</sup>. Jumladan, 5-sinf. A.Shamuratovning "Menin' jolbarislar menen joligiswlarim" hikoyalar turkumi, "Jolbaris tirnaginda", "Qawendershilik", "Jolbaris penen ayqastim", "Gaz atpaga barganda", "Jolbaristin' tuyege mingenin kordin' be?" (3 soat), X.Saparovning

"Qurqiltaydin' uyası», "Buldırıq" hikoyalari (2 soat), T.Qayipbergenovning "Qaraqal paqnama" roman-essesi (1soat), G.Esemuratovanning "Kergidegi pul", "Kokley erjetiw" (2 soat), K.Allambergenovning "Quslar qaytqan kun" qissasi (1 soat), H.O'temuratovanning "Jiyde japıraq" hikoyasi (1 soat), B.Ernazarovning "Jaz

<sup>9</sup> Тўйчиева М. Адабиёт дарсларида педагогик вазифалар: мазмун, моҳият // Халқ таълими. – Т., 2017.- №6. Б. 57.

<sup>10</sup> Қарақалпақ әдебияты пәнинен оқыў бағдарламасы. (5-11-класлар). [Электрон текст]. – Нөкис: РБО, 2021.

kúinde” hikoyasi (1 soat), 6-sinfda 1-qismda. Har bir kun-dars. N.Davqarayevning “Internatta” hikoyasi, Sh.Seytovning “Kóp edi ketken tırnalar” qissasini (2 soat), 7-sinf. 1-bo‘limda. Inson, tabiat, o‘zlik. Qo‘shimcha o‘qishda K.Allambergenovning “Kúshik hám bala” hikoyasi (1 soat), 3-bo‘lim. O‘tmishdan ohanglar. K.Mambetovning “Túrkistan” romani (2 soat), 4-bo‘lim. Yaxshilikka intiluvchi ko‘ngil. S.Jumag‘ulovning “Qarız” hikoyasi (1 soat) o‘qitish ko‘zda tutilgan.

Mamlakatimizda 2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturning amaliyotga tatbiq etilishini nazarda tutgan holda ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumta’lim maktablari uchun adabiyot fanini o‘qitish bo‘yicha rivojlantirish konsepsiyasi va yangi avlod qoraqalpoq adabiyoti darsliklari yaratilgan<sup>11</sup>. Bu konsepsiya bir nechta bo‘limlardan: umumiy qoidalar, adabiyot fanining ta’limdagi o‘rni, maqsad va vazifalari, adabiy ta’limning asoslari, uni o‘qitishdagi muammolar, o‘qitishni rivojlantirish strategiyasi va yo‘nalishlari, umumta’lim maktab o‘quvchilariga adabiyot fanidan qo‘yiladigan DTS talablarini o‘z ichiga oladi. Ushbu faslda hozirgi paytda amaldagi “Qoraqalpoq adabiyoti” darsliklarida nasriy asarlarni o‘rganish bo‘yicha berilgan savol-topshiriqlarning saviyasi, ularning aksariyati faktologik mazmunda aks ettirilganligi, darsliklarga mustaqil o‘qishga undovchi konseptual savol-topshiriqlar kamligi haqida aytib o‘tiladi.

Bobning “**Maktablarda 5–7-sinflarda adabiyot darsliklarida berilgan nasriy asarlarni o‘rgatish va tahlil etishning o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlangan faslida umumta’lim maktablari adabiyot darslarida har qanday adabiy asarni didaktik jihatdan tahlil qilinganda, badiiy asarni tahlilning umumiy tamoyillariga, talablariga va usullariga pedagog tomonidan rioya etilishi, adabiyot darsida nasriy asarlar tahlilida, uning janr xususiyatlari va farqlarining e‘tiborga olinishi darkorligi, adabiyot darsida nasriy asarlarni tahlil qilish, mustaqil izlanishga, o‘zicha qaror qabul qilish, erkin fikrlashga qaratilgan muammoli tahlilni qo‘llashga ko‘proq e‘tibor qaratish zarurligi haqida bayon etilgan.

**Muammoli tahlil.** Adabiyot darsi asosan o‘quvchilar tomonidan olib borilishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi ularning oldiga adabiy muammo qo‘yadi va yechish yo‘llarini ko‘rsatadi. Asarni tahlil qilishda o‘quvchilar bilgan tushunchalaridan foydalanib qolmasdan, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni o‘zlashtirib oladilar. Sababi, ular jamoa bo‘lib ishlaydi, o‘zaro fikr almashadi. Bu holatda o‘quvchilarning ruhiy olamida ham, aqliy dunyosida ham ma’lum darajada o‘zgarishlar yuz beradi.

**5-sinf. T.Qayipbergenovning “Muallimga rahmat” qissasining parchasi bo‘yicha:**

1. Turdimurod birinchi marta Menglimurat muallim bilan uchrashib qolganida qanday ruhiy holatga tushdi? Siz bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz? Hozirgi vaqtga taqqoslang.

---

<sup>11</sup> Ульўма орта билимленлирийде әдебият пәнин оқытыў бойынша раўажландырыў концепциясы.[Электрон текст]. – Нөкис: РБО, 2022; P.Nurjanov, J. Umatova, G.Begmuratova, D.Nurseytov. Адебият 5-класс. (1-2-bólim) -Т.: Novda Edutainment, 2024., Orazimbetov Q., Genjemuratov B, Begmuratova G. Адебият. 6-класс ushin sabaqlıq. – Т.: Respublikalıq bilimlendiriw orayı, 2022. – 224 b. Nietova R, Mámбетov I, Jaksımova G. Адебият. 7-класс ushin sabaqlıq. – Т.: Respublikalıq bilimlendiriw orayı, 2022. – 224 b.

2. Turdimurodning Soyib, Qunnazar, Sarsenboylar bilan birga o'ynab, birgalikda o'g'irlik qilayotganlarini sizlar qo'llab-quvvatlaysizmi?

3. Do'ysen mulla bolalarga muallim haqida qanday fikrlarni aytardi? Sizlar Do'ysen mullaning fikriga qo'shilasizmi?

4. Asarning qaysi jihati yoki qaysi obrazi sizga ko'proq yoqdi?

Bobning **“5–7-sinf o'quvchilarida badiiy tafakkur va estetik didni shakllantirishda nasriy asarlarning o'rne”** deb nomlangan faslida umumta'lim maktablari adabiyot darslarida 5–7-sinf o'quvchilarining badiiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishda nasriy asarlarning o'rni, ularning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilindi. O'quvchilarning yosh psixologiyasiga mos keladigan, hayotiy voqelik va axloqiy qadriyatlarni yorituvchi nasriy asarlar badiiy tafakkurning shakllanishi uchun samarali vosita ekanligi ko'rsatildi. Nasr matnlari orqali o'quvchilarda tafsiliy fikrlash, estetik qabul qilish, empatiya va ijodiy faoliyat ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, darslarda muammoli savollar va interfaol metodlar qo'llanilishi orqali badiiy tafakkur va estetik didni yanada chuqurlashtirish mumkinligi ta'kidlandi. Faslda olingan natijalar nasriy asarlarni o'qitishda samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

**“Maktablarning 5–7-sinflarida nasriy asarlarni o'qitishda konstruktiv va muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish”** deb nomlangan ikkinchi bobning **“Nasriy asarlarni o'qitishda zamonaviy o'qitish shakllaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish”** degan faslida maktablarda adabiyot darslarida qoraqalpoq nasriy asarlarini o'qitish samaradorligini oshirishda hozirgi zamonaviy pedagogika ilmining erishgan yutuq va tajribalari foydalanishni nazarda tutgan holda konstruktiv hamda muammoli ta'limni qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari va amaliy ahamiyati to'g'risida bayon etildi.

Konstruktivizm – jahon pedagogikasida ham ilmiy-nazariy qarash, ham amaliy yo'nalish sifatida keng tarala boshladi. Bu ilmiy dunyoqarashning nomi lotincha “constructio”–“qurilma”, “qurilish” so'zlaridan olingan bo'lib, unga muvofiq o'qitish o'quvchilarning faoliyatlari natijasida bilimlar konstruksiyalanadi, ya'ni muayyan bir mantiqiy qurilma holatiga olib keladigan jarayon. Bu Shvetsariyalik taniqli filosof va pedagog Jan Piaje, zamonaviy L.S.Vigotskiy, Amerikalik psixolog Benjamin Blum kabi olimlarning o'qitishni tashkil etish psixologiyasi, pedagogikasi va filosofiyasiga qarashlari asosida yuzaga kelgan<sup>12</sup>.

Maktablarda qoraqalpoq nasrini o'qitishning samaradorligini oshirishda, adabiy ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va uni takomillashtirishda konstruktiv o'qitishni, shuningdek, muammoli ta'limni qo'llanish va tajribada sinash maqsadga muvofiq. Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilishicha, konstruktiv o'qitish quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- 1. O'qitishning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish;**
- 2. O'qitishni asosiy konseptlar atrofida amalga oshirish;**
- 3. O'quvchilarning fikr aytishiga imkon berish va uni hurmat qilish;**

---

<sup>12</sup> Шунк Дейл Х. Оқыту теориясы: Білім беру көкжиегі. – Алматы: «Ұлттық аударма бюросы» қоғамдық қоры, 2019. – 608 б.

#### **4. O‘quv dasturini o‘quvchilarning bilim darajasiga moslashtirish;**

#### **5. Baholoshning ta‘lim berish kontekstiga mos kelishi.**

Konstruktiv o‘qitish an’anaviy o‘qitishdan o‘quvchilarning qiziqishi va savollariga javob berishi, o‘qitish kichik guruhlarda o‘rgatish bilan katta g‘oyalarga asoslanishi, o‘qituvchi o‘quvchilarga rahbarlik hamda o‘zaro faoliyat yuritishga mas’ul va zarur shart-sharoit yaratishi, o‘qituvchilar o‘quvchilarga munosabat orqali bilim yaratishga yordam berishi, o‘quvchilar o‘zaro harakatlanishi orqali oldindan tushunish asosida bilim to‘plashi, bilim o‘quvchilarning tushunchasi bilan birga muntazam rivojlanib turishi, jarayon juda ahamiyatli, shu boisdan baholashda odatdagi ishlardan boshqa o‘quvchilarga har xil topshiriqlarni bajarganiga qarab baholanishi, darslar asosan guruhlarda o‘tkazilishi, o‘qitishni o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishi, o‘zi-o‘zini takomillashtirishga yo‘naltirishi bilan bir-biridan farq qiladi.

Shuningdek, maktablarda adabiyot darslarida qoraqalpoq nasriy asarlarni o‘qitishda muammoli ta‘lim yo‘lga qo‘yilsa, uning samaradorligi oshadi. Muammoli ta‘limning, asosan, o‘qituvchi tomonidan bilim oluvchilarning o‘quv ishlarida muammoli holatni yuzaga keltirish va o‘quv topshiriqlarini, muammolarni va savollarni yechish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. U o‘quvchilarda bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishda, o‘zini atrof-muhitda faol munosabatni belgilab olishda va bilish faoliyatlarini jonlantirishda ulkan imkoniyatlarga ega. Muammoli o‘qitish o‘zining ayrim mantiqiy-tuzilmaviy komponentlarni o‘zida jamlab, unda o‘qish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyatida o‘ziga xos sifatlar ko‘zga tashlanadi va bu jarayon bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi.

**Muammoli o‘qitishning bosqichlari:** 1. O‘qish muammosining qo‘yilishi; 2. Muammoli holatning yuzaga keltirilishi; 3. Bilimlarning jadallashishi; 4. Gipotezaning (Bashorat) harakatga kelishi; 5. Fikr, g‘oyalarning paydo bo‘lishi, yo‘naltirish va rejalashtirishlik faoliyati; 6. Izlanish, gipotezani tekshirish; 7. Muammoning yechimi; 8. Muammoning yechimini, bilim, ko‘nikma va tajribalarni tekshirish. Muammoli o‘qitish turining bosqichlarini hisobga olgan holda maktablarda qoraqalpoq adabiyoti darslarida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishga ko‘mak beradigan va ushbu yo‘nalishni ko‘zlaydigan so‘rov va topshiriqlar pedagog tomonidan o‘quvchilarning oldiga ochiq o‘qish muammosi sifatida qo‘yish mumkin.

**6-sinf. T.Qayipbergenovning “Qoraqalpoqnoma” roman-essesi. Do‘stlik haqida:** 1. “Do‘stlashish uchun qarashlar ham mos kelishi kerak. Ammo har kimni sinab-tekshirsang ham ahvoning yengillashmaydi” degan fikrlarini o‘z fikrlaringiz bilan davom ettiring. Nima uchun...? Sababi...

2. Sizningcha, abadiy do‘st bilan abadiy bo‘lmagan, vaqtinchalik do‘stlarning qanday farqi bor?

3. Xalqimiz orasida: “Bosh qattiqmi yoki tosh qattiqmi?” degan gapning ma‘nosi nimada? Do‘stlaringiz bilan birgalikda o‘ylab, maslahatlashib, muhokama qiling.

4. Sizningcha, do‘stlik deganda nimani tushunasiz? Do‘stning turlari bormi yoki u bo‘linmagani ma‘qul bo‘lar?

5. Do‘stlik – juda og‘ir yuk. Bir–biri bilan hazillashganda ham ehtiyot

bo'lmagan do'st o'zining yukini yelkasiga tashlab qo'rganini sezmay, orada malomat tug'diradi. Nega muammoni keltirib chiqaradi? Balki, u do'st... Fikrni davom ettiring.

Qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda muammoli holatni yuzaga keltiruvchi misollarni keltirish va ularning ma'nosini tahlil qilish foydali usullardan biri. Dastlab o'qituvchi mazkur masalada nimalarni bilishi, qaysi tushunchalar asosida zid fikrlar paydo qilishiga diqqat qaratadi. Muammoli masalaning qiyosiy turga ega ekanligini hisobga olib, qoraqalpoq adabiyoti bo'yicha o'quvchilar materiallarni o'zlashtirishi bilan aniqlanadi<sup>13</sup>

Bobning **“Adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash usullari”** deb nomlangan faslida esa maktablarda 5-7-sinflarida qoraqalpoq prozasini o'qitishda an'anaviy va interfaol metodlarni foydalanishda fan o'qituvchisidan chuqur pedagogik bilim va tajriba, ayniqsa, samarador pedagogik mahoratni taqozo etishi, adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'rganish va o'qitishda qo'llaniladigan “SWOT” tahlili, “Aqliy hujum”, “Zigzag” kabi boshqa metodlar darsning mazmuni va sifatiga katta ta'sir etadigan o'qitishning interfaol metodlari borligi, ulardan dars jarayonida yoki sinfdan tashqari tadbirlarda to'g'ri va samarador foydalanish har bir adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy mahorati takomillashuviga yordam berishi haqida bayon etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf “Qoraqalpoq adabiyoti” darsligida o'quv dasturiga muvofiq yozuvchi S.Jumag'ulovning “Qarz” nomli satirik hikoyasi o'tiladi. Dars davomida o'quvchilarga “SWOT” tahlili metodini qo'llash orqali ushbu hikoyadagi Satulla obraziga tavsif berish, uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib ko'rsatish va tahlil qilish uchun topshiriq beriladi, pedagog tomonidan tushuntirib beriladi.

#### **Satulla obrazi**

**Kuchli tomoni:** Odamlar bilan tez munosabat o'rnatishi, har qanday ishga kirishuvchanligi, so'zamolligi;

**Zaif tomoni:** Uyatsizligi, o'ylamasdan ish qilishi, rahmsizligi;

**Imkoniyatlari:** Uning uyida ko'p pulning mavjudligi, xo'jalik ishlarida xarajatlarni sarflashda to'g'ri reja tuzishni bilishi;

**Xavf-xatarlar:** Xasisligining fosh bo'lishi, qarz so'rashning odatga aylanib qolganligi, qo'shnilar oldida obro'sizlanishi va hokazo.

O'quvchi esa bu jadvalni to'ldirish, Satulla obraziga tavsif berish orqali shu adabiy asardagi badiiy obrazga bo'lgan munosabati, asarning qimmatini, turmush haqiqatiga bo'lgan munosabati paydo bo'ladi va shakllanadi. Adabiyoti fanini o'qitishda o'qituvchi tomonidan bu usulni qo'llash darsning samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchining o'z fikrini bildirishiga, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllanishiga hamda badiiy adabiyotni o'rganishga qiziqishining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bobning **“Nasriy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish usullari”** deb nomlangan uchinchi faslida esa adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning ovquvchilarning badiiy

<sup>13</sup> Юсупов Қ. Академиялық лицейлерде каракалпак әдебиятын оқытыу методикасы (шөлкемлестиріу формалары хәм кластан тыс жұмыслар): Пед. илим. д-ры (DSc) дис. – Нөкис, 2020. – Б. 56.

matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda meta-kognitiv qarashlar asosida tizimlashtirish va takomillashtirish yo'llarini aniqlash va takomillashtirish masalalari yoritib beriladi.

Adabiyot darsida o'quvchilar ishlaydigan eng asosiy obyekt—bu badiiy matndir. Shunday ekan, adabiyot o'qitish metodikasiga xos bo'lgan tamoyillarni tushunish va ularni adabiyot darslarida ongli qo'llay olish uchun adabiyot o'qituvchisi birinchi navbatda matn, xususan, badiiy matnni o'qish va o'rganish jarayonining ilmiy asoslarini tushunishi talab etiladi.

Adabiyot darslarida ham o'quvchilar asosiy ma'lumotni o'qish orqali oladilar. O'qituvchining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchiga kitob o'qishni o'rgatishdir.

Shunday ekan, o'qituvchi kitob o'qish va o'rganish jarayonining ilmiy asoslarini tushunsa va tahlil qila olsa, u o'quvchini kitob o'qishga o'rgatish jarayonini samarali tashkillashtira oladi. O'quvchi qandaydir bir matn bilan ishlayotganda uning ongida qanday jarayonlar sodir bo'ladi? Bu jarayonlar o'qilayotgan matnni tushunishga qanday ta'sir ko'rsatadi? O'quvchining individual xususiyatlari matnni tushunishda rol o'ynaydimi? O'qish (mutolaa) jarayonining ilmiy asoslarini tahlil qilgan olimlar ushbu savollarga javob topishga intilganlar va ularni quyidagi uch bosqichga bo'lganlar:

An'anaviy qarashlar, kognitiv qarashlar, metakognitiv qarashlar.

Meta-kognitiv yondashuvlar o'qish va o'qilgan matnni tushunishning interaktivligi tamoyiliga asoslangan. Bu tamoyilga muvofiq, o'quvchi (uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, bilimlari, o'qiyotgan paytidagi emotsional holati, kontekst, vaziyat) va matn (tovushlarning talaffuzi, alohida olingan so'zlarning ma'nosi, matnning sintaktik va semantik tuzilishi) o'qish jarayonida bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi va o'quvchi matn ustida ishlash jarayonida ma'noni o'zi yaratadi. O'quvchi bir vaqtning o'zida yozilgan matnning kichik elementlaridan ma'nosini yaratadi va o'z bilimlariga tayanib, uzluksiz o'z taxminlarini hosil qiladi, ularni tasdiqlaydi yoki rad etadi. O'quvchi matnni o'qish jarayonida qabul qilinayotgan yangi ma'lumotni o'z sxemasidagi mavjud bilimlar bilan taqqoslaydi va bu ma'lumotga sxemasidan joy ajratib, uni o'zlashtiradi.

Meta-kognitiv yondashuv tarafdorlarining fikricha, o'quvchi o'qish jarayonida nima qilayotgani haqida o'ylaydi, o'zini o'zi nazorat qiladi, boshqaradi va bu nazorat (nazariyada meta-tushunish, inglizcha meta-cognition deb ataladi) bevosita tushunish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Matn bilan ishlash jarayonini boshqarish uchun o'quvchi strategiyalarni qo'llaydi. An'anaviy yondashuvlarda ko'nikmalar avtomatlashtirilgan, o'quvchi erkinligidan tashqari harakatlar bo'lsa, meta-kognitiv yondashuvlardagi strategiyalarni o'quvchi o'z xohishi bilan, tanlab, vaziyatga, o'qiyotgan matnga va maqsadga moslashtirgan holda qo'llaydi. O'quv jarayonining meta-kognitiv tahlili badiiy matnni o'qishga tatbiq etilsa, badiiy matn bilan ishlash va undagi ma'nolarni anglash jarayoni interfaollik, konstruktivlik va strategik tamoyillariga asoslanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning badiiy matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kitobxonlik qobiliyatini shakllantirishda quyidagi holatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

**badiiy matn – o'quv materialining mazmuni;**  
**darsda kognitiv jarayonlarni tashkillashtirish;**

### **fan o'qituvchisining badiiy-ijodkorlik qobiliyati.**

Shu bilan birga ushbu faslda adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning kitobxonlik qobiliyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga samara beradigan **“kitob bilan ishlash”, “reja tuzish”, “kartochkalar yig'ish va kartoteka tuzish”** kabi metodik usullar, nasriy asarlarning matni bilan ishlash strategiyalari va uni o'quvchining idrok etishiga bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarga tadqiq etiladi. Masalan, o'quvchining nasriy asarlarni idrok eta olishi ma'lum vaqt oralig'ida uch bosqichda amalga oshadi.

Ular: **1. Nasriy asarlarni o'qish arafasidagi davr**

**2. Nasriy asarlarni o'qish davomida.**

**3. Nasriy asarlarni o'qib tugatgandan keyingi davr.**

